



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	





Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	

# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDA OG'ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili nazariy aspektlari 2- kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirish jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Psixologik, lingvistik, metodik va muhitga oid omillar o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lug'at zaxirasining yetarli emasligi, talaffuz muammolari, qo'rquv va motivatsiya yetishmasligi og'zaki nutqning rivojlanishiga asosiy to'siq bo'lmoqda. Maqolada interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari va zamonaviy yondashuvlar orqali ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi. Natijalar o'qituvchilar va metodistlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** og'zaki nutq, boshlang'ich sinf, ingliz tili, qiyinchiliklar, interaktiv metodlar, motivatsiya, talaffuz.

**Abstract:** This article analyzes the main challenges in developing oral English communication skills among primary school students. Psychological, linguistic, methodological, and environmental factors are examined. The study reveals that limited vocabulary, pronunciation difficulties, fear of making mistakes, and low motivation are the main barriers to the development of oral proficiency. Interactive methods, game-based technologies, and modern pedagogical approaches are proposed as effective solutions. The findings have practical significance for teachers and methodologists.

**Key words:** oral communication, primary school, English language, challenges, interactive methods, motivation, pronunciation.

**Аннотация:** В статье анализируются основные трудности формирования устной речи на английском языке у учащихся начальных классов. Рассматриваются психологические, лингвистические, методические и средовые факторы. Исследование показывает, что недостаточный словарный запас, проблемы произношения, страх совершить ошибку и недостаточная мотивация являются основными барьерами в развитии устной речи. Предлагаются пути решения данных проблем посредством интерактивных методов, игровых технологий и современных подходов. Результаты имеют практическое значение для учителей и методистов.

**Ключевые слова:** устная речь, начальные классы, английский язык, трудности, интерактивные методы, мотивация, произношение.

## KIRISH

Bugungi zamonaviy globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitish metodikasi ularning yosh, psixologik va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda alohida yondashuvni talab qiladi. Ushbu yosh davrida o'quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida jamlay olmasligi, tez charchashi va o'yin faoliyatiga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi dars jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilar bolalarning individual va psixologik jihatlari chuqur o'rganib, dars mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishlari ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarning talaffuz jihatidan qiynalishlari va til to'sig'iga duch kelish ehtimoli yuqori hisoblanadi. O'quvchilarning til o'rganish jarayonidagi bu kabi muammolarini bartaraf etish maqsadida fonetika haqida ma'lumot berish va uni chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi.

Fonetika tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, nutq tovushlarining hosil bo'lishi, talaffuzi va qabul qilinishini o'rganadi. U juda keng qamrovli soha bo'lib, ayrim jihatlari tilshunoslik bilan bir qatorda fiziologiya, akustika va psixologiya fanlari bilan ham bog'liqdir. Yuqorida sanab o'tilgan fonetik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ravishda o'rganilishi mumkin. Biroq ular o'zaro chambarchas bog'langan: nutq organlari harakat qilib tovushlarni hosil qiladi, bu tovushlar tovush to'lqinlari orqali tarqaladi, quloqlar tomonidan qabul qilinadi va miyaga uzatiladi. Agar fonetika nutq tovushlarining fizik va fiziologik xususiyatlari bilan shug'ullansa, fonologiya



esa, aksincha, tovushlarni qanday talqin qilishimiz va ularni qanday tizimlashtirishimiz bilan shug'ullanadi. Fonologiya muayyan tillarda mavjud bo'lgan tovushlar tizimi va ularning qonuniyatlarini o'rganadi. Ingliz tili fonologiyasini o'rganish jarayonida tilning unilari, undoshlari hamda suprasegment xususiyatlari tahlil qilinadi.

Barchamizga ma'lumki, boshlang'ich sinflardan boshlab og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Og'zaki nutq (speaking skills) tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalaridan farqli o'laroq, real vaqtda amalga oshiriladi va tezkor javob talab qiladi. Uni shakllantirish esa eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu sababli xorijiy tilni o'qitish jarayonida o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda "o'qib tushunish" (reading), "tinglash" (listening), "yozish" (writing) va "gapirish" (speaking) ko'nikmalarini o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko'nikmalarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi, ularning lug'at boyligini kengaytiradi hamda xorijiy tilda erkin va ravon nutq yuritish malakalarini rivojlantiradi.

**Nutq faoliyati turlari.** Gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozishni o'rgatish, shuningdek, til materiali – leksika, grammatika va talaffuzni o'rgatish natijasida o'quvchilarda chet tilida o'zaro axborot almashish malakalari shakllantiriladi.

**Nutq shakllari.** Nutq faoliyati og'zaki va yozma shaklda ro'yobga chiqadi. Og'zaki nutq gapirish va tinglab tushunishdan, yozma nutq esa o'qish va yozishdan iborat.

**Nutqning tarkibiy qismlari.** Nutqning uch tomoni – tuzilishi (grammatika), semantikasi (leksika) va ifodasi (talaffuz) til materialining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

**Metodik tahlil savollari.** Metodikada nima uchun (ta'lim maqsadi), nimani (ta'lim mazmuni), qanday qilib (ta'lim metodlari va prinsiplari asosida) hamda kimga (o'quvchiga) o'rgatish haqida ilmiy mulohazalar yuritiladi.

**Nutq aspektlari.** Nutq faoliyatida operatsion (til materiali ishtiroki) va motivatsion (fikir bayoni) jihatlar ajratib ko'rsatiladi.

**Nutq faoliyati turlari.** Gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozishni o'rgatish hamda til materiali – leksika, grammatika va talaffuzni o'rgatish orqali o'quvchilarda chet tilida o'zaro axborot almashish malakalari shakllantiriladi.

Tadqiqot maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirishdagi asosiy to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud qiyinchiliklarni tasniflash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston kontekstida boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'yin texnologiyalari va interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mahalliy metodist olimlarning ilmiy ishlari ham boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitishning nazariy hamda amaliy jihatlarini keng yoritadi. Jumladan, J. Jalolov tomonidan ishlab chiqilgan metodik tamoyillar chet tilini bosqichma-bosqich o'rgatish tizimini asoslab beradi.

O'. Hoshimov va I. Yoqubov tadqiqotlarida esa o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, darsni samarali tashkil etish hamda nutq faoliyati turlarini o'zaro integratsiyalash masalalari chuqur tahlil qilingan. Ushbu ilmiy qarashlar og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish metodikasining muhim nazariy asosini tashkil etadi.

Boshlang'ich bosqichda chet tilini o'qitishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati Maxbuba Tursunaliyevna Gaziyevaning ilmiy ishlarida ham alohida ta'kidlangan. Tadqiqotchi o'yin elementlarini ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodik yondashuv sifatida ko'rsatib, ularning o'quvchilarda nutqiy faollikni kuchaytirishdagi ijobiy ta'sirini qayd etadi.

Xorijiy tadqiqotlarda og'zaki nutq muammolari keng yoritilgan. L. M. Guccione ELL (English Language Learners) uchun beshta asosiy qiyinchilikni ko'rsatadi: tilni yetarli darajada bilmaslik, madaniy farqlar va boshqa omillar.

Psixologik omillar (qo'rquv, uyatchanlik, xato qilishdan qo'rqish) ko'plab tadqiqotlarda birinchi o'rinda turadi. Asosiy qiyinchiliklar lingvistik, psixologik hamda metodik va muhitga oid muammolardan iborat. Lingvistik qiyinchiliklarga lug'at zaxirasining cheklanganligi, talaffuz va intonatsiya muammolari, shuningdek, grammatik qoidalarni real suhbat jarayonida qo'llay olmaslik kiradi. Psixologik omillar esa xato qilishdan qo'rqish, uyatchanlik, past motivatsiya, anksiyete (bezovtalik) hamda o'ziga ishonchsizlik bilan bog'liq.

Metodik va muhitga oid muammolar qatoriga dars vaqtining cheklanganligi (haftada 2-3 soat), sinflarning katta hajmda shakllantirilishi va guruhlarining geterogenligi, o'qituvchilarning og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha amaliy tajribasining yetishmasligi, ona tili (o'zbek yoki rus tili) ta'siri hamda autentik til muhitining mavjud emasligi kiradi.

Rus tilidagi manbalarda dialogik nutqni o'rgatishdagi qiyinchiliklar, fonetika va grammatika bilan bog'liq muammolar alohida ta'kidlanadi. Ilmiy manbalar tahlili og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuvlar tadqiqotimiz uchun nazariy asos vazifasini bajaradi hamda muammoning amaliy yechimlarini ishlab chiqishda metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qiyinchiliklar o'zaro uzviy bog'liqdir. Masalan, lug'at boyligining yetarli emasligi o'quvchilarda qo'rquv hissini kuchaytiradi. Boshlang'ich yoshdagi bolalar tabiatan o'yin va faollikka moyil bo'lganligi sababli an'anaviy metodlar har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Interaktiv usullar (role-playing, songs, games, pair work) esa samaraliroq natija beradi.

Xorijiy tilni o'qitish jarayonida o'quvchilarda kommunikativ hamda leksik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Interfaol usullar, muloqotga asoslangan topshiriqlar, dialoglar va rolli mashqlardan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutq faoliyatini faollashtiradi.

Mashqlar tizimi kommunikativ bo'lmagan mashqlar, shartli kommunikativ mashqlar va haqiqiy kommunikativ mashqlarga bo'linadi. Ushbu usul va metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishni ancha osonlashtiradi.

Maktab o'quvchilarining, xususan, boshlang'ich sinf (1-2-sinf) yoshidagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish ularning til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

### XULOSA VA TAVSIYALAR

Kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda tilni o'rgatish alohida mehnat talab qiladi. Ularni biror narsani yodlashga majburlash yoki "yodlab kelmasang, dars qilolmaysan" tarzida talab qo'yish ularning til o'rganish jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini pasaytiradi. Shu sababli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga dars berishda o'yinli va rolli usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rag'batlantiradi hamda til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, quyidagi tavsiyalar ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi:

1. Darslarni o'yin va loyiha asosida tashkil etish.
2. Vizual va audio materiallardan (YouTube, flashcards) foydalanish.
3. Xavfsiz ta'lim muhitini yaratish va xatolarni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida rag'batlantirish.
4. Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini oshirish.
5. O'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarini muntazam tashkil etish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aslam, Y., & Aleem, A. Exploring Oral English Proficiency Challenges. JALT.
2. Basnet, J. B. Assessing Challenges. Tarpel Primary School, 2022.
3. Kelly, G. How to Teach Pronunciation. Malaysia, 2001. – P. 9.
4. Guccione, L. M. Oral Language Development and ELLs: 5 Challenges and Solutions. Colorin Colorado.
5. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 1993.
6. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Sharq", 2003. – B. 9-10.
7. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2012. – B. 9.
8. Iriskulov M. T., Shatunova A. S. English Phonetics. – Toshkent, 2011. – B. 6.
9. Lester, N. What Difficulties Do Children Learning English Face? Taylor & Francis, 2025.
10. Малюкина А. И. О трудностях обучения диалогической речи. CyberLeninka.
11. Rahmon, R. Challenges and Strategies in Enhancing Oral Communication. 2024.
12. Rajabova, Z. O'quvchilarning ingliz tilida nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda. Interscience.uz.
13. Taye, T. Awareness, Challenges, Practice, and Speaking Skills. 2025.
14. Хао Ч. Т. Основные трудности обучения младших школьников. 2025.
15. Yusupovna, R. X. Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish. Phoenix Publication, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.